

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

KELAJAK SOATLARINING VARIATIV KOMPONENTLARINI POLIPARADIGMAL YONDASHUVDAN FOYDALANIB DIDAKTIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Salomov G‘ulom Yuldoshevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasini mudiri,

p.f.f.d., (PhD). dots.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kelajak soatlarining variativ komponentlarini poliparadigmal yondashuv asosida didaktik ta’minotini takomillashtirish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida sun’iy intellektga asoslangan adaptiv o‘quv tizimlari, intellektual platformalar va raqamli resurslardan foydalanish orqali o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, variativ komponentlarni loyihalashda sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, o‘quv traektoriyalarini optimallashtirish va kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi ochib berilgan. Poliparadigmal yondashuv asosida sun’iy intellektning integratsiyasi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, poliparadigmal yondashuv, variativ komponent, didaktik ta’minot, adaptiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, intellektual tizimlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim sifati.

Аннотация. В данной статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в совершенствовании дидактического обеспечения вариативных компонентов будущих уроков на основе полипарадигмального подхода. Освещаются возможности организации индивидуализированного обучения с использованием адаптивных систем, интеллектуальных платформ и цифровых ресурсов на базе искусственного интеллекта. Также раскрывается эффективность искусственного интеллекта в определении уровня знаний учащихся, оптимизации образовательных траекторий и развитии их компетенций. Обосновано, что

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

интеграция искусственного интеллекта в полипарадигмальный подход способствует повышению качества образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, полипарадигмальный подход, вариативный компонент, дидактическое обеспечение, адаптивное обучение, цифровые технологии, компетентностный подход, интеллектуальные системы, личностно-ориентированное обучение, качество образования.

Abstract. This article analyzes the role of artificial intelligence technologies in improving the didactic support of variable components of future lessons based on a polyparadigmatic approach. It highlights the possibilities of organizing individualized learning using AI-based adaptive systems, intelligent platforms, and digital resources. The study also reveals the effectiveness of artificial intelligence in assessing students’ knowledge levels, optimizing learning pathways, and developing competencies. It is substantiated that the integration of AI into the polyparadigmatic approach contributes to improving the quality of education.

Keywords: artificial intelligence, polyparadigmatic approach, variable component, didactic support, adaptive learning, digital technologies, competency-based approach, intelligent systems, learner-centered education, educational quality.

Kirish. Dunyoda umumta’lim maktablari o‘quvchilarining ma’naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirish orqali ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanish, ta’lim-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogika fanini o‘qitishning asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Pedagogika institutlari va universitetlarida innovatsion yondashuvdan kengroq foydalanish, interfaol metodlarni ta’lim-tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish, sun’iy intellekt vositalari asosida yosh avlod ma’naviyatini, ma’rifatini, mafkurasini takomillashtirishning modernizatsiyalashgan didaktik ta’minotini yaratish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash pedagogik tizimni takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoq zarur.

Bugungi ta’lim tizimida inson faoliyatining turli sohalarida jahon ta’lim tizimlarining globallasuvi va integratsiyalashuvi ta’lim sifatiga tobora yuqori talblar qo‘yimoqda. Yuzaga kelgan raqobat umumta’lim maktablari o‘quvchilarining shaxsiy fazilatlarini va

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

uning hayotga tayyorgarligiga qo‘yiladigan jamiyat talablari idaqator o‘zgarishlar ni yuzaga keltiradi. Shunga bog‘liq holda, jamiyatda o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillarini ma’naviy-axloqiy jihatdan barikamol, intellektual, muloqot, axborot va boshqa sohalar da asosiy kompetensiyalar to‘plamiga, zamon talblar iga javob beruvchi faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsga ehtiyoj yuzaga keldi.

Natija va muhokamalar. Mamlakatimiz ta’lim tizimining hozirgi bosqichida mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan jamiyatning bo‘lajak faol ishtirokchilari, umumta’lim maktablari o‘quvchilari ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk va raqobatbardosh qilib tayyorlash asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan umumta’lim maktablari o‘quvchilari ning ma’naviy-axloqiy tafakkurini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Chunki sinf rahbari umumta’lim maktablari o‘quvchilari ning psixologik-fiziologik o‘ziga xosliklarini hisobga olish tajribasini egallashi lozim. Buning uchun umumta’lim maktablari i sinf rahbarlaridan zamon talblar ga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, chuqur bilim, zamonaviy dunyoqarash va puxta kasbiy tayyorgarlikka ega shaxs bo‘lish talab etiladi.

Hozirgi kunda o‘qitishning an’anaviy yondashuvlari o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazaridan, umumta’lim maktablari da o‘quvchilari ning egallagan nazariy bilimi, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini muntazam nazorat qilish hamda ma’naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish, ular da intellektual salohiyatning muntazam rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, o‘quv tara biyaviy jarayonda innovatsion texnologiyalar, tara biyaning invariant va variativ komponentlaridan doimiy foydalanish orqali ta’lim-tarbiya sifatini oshirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda.

Umumta’lim maktablari da ta’lim-tarbiyaviy jarayonda an’anaviy o‘qitish metodikasi asosida ta’lim olib borilganda, o‘quvchilari mashg‘ulotlar da ko‘pincha eshitadi, ko‘radi, eslab qoladi, takrorlaydi, yoddan aytib beradi, ammo mustaqil fikr yuritish, mushohada qilishga kamroq e’tibor qaratiladilar.



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

O‘quvchilar faoliyatida faollik yuqori darajada sezilmaydi, muammoli vaziyatni yaratish, faraz va uning yechimini ilgari surish, muammolarga yechim topishda mustaqil qaror qabul qilish yo‘llarini izlab topish jarayoni sust kechadi. Shuning uchun ham umumta’lim maktablari o‘quvchilari bilan ishlashda o‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprilda “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining DTSlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori e‘lon qilindi. Shu munosabat bilan kelajak soatlari mazmunan qayta ko‘rib chiqilib, kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirilishi belgilandi.

Ma’lumki, sinf rahbari o‘z sinfidagi o‘quvchilarning bevosita va bilvosita ta’lim-tarbiyaviy jarayonni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas’ul shaxs hisoblanadi.

Umumta’lim maktablarida sinf rahbari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi qarorlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli normativ-hujjatlar va Xalq ta’limi vazirligining 2007-yil 20-yanvardagi 19-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ta’lim muassasalarisinf rahbari to‘g‘risida Nizom” asosida tashkil etiladi.

Mazkur dastur va metodik qo‘llanma yuqorida nomlari keltirilgan ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek, umumta’limning uzluksizligi, uzviyligi va izchilligiga, zamonaviy metodologiyalariga asoslangan.

Dasturning maqsadi - kelajak soatlari mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, ma’naviy-axloqiy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

ISSN (E): 2181-4570

CONFERENCE SPECIAL ISSUE

CROSSREF Prefix: 10.66301

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Kelajak soat dasturining vazifalari:

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida umumta’lim maktablari o‘quvchilari ni ta’biyalashning samarali shakllari va usullarini joyi etish; ta’lim-ta’biyaviy jarayonga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joyi etish; o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta’lim, fan, texnologiya va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqimining tezkorligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatning salbiy ta’sirlari sezilmoqda. Bu muammoni umumta’lim maktablari o‘quvchilari ning ijtimoiy hayotlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida ota-onalar tomonidan o‘quvchilarning beodoblighi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, mas’uliyatning yetishmasligi, atr ofidagilar bilan kelisha olmasligi, o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. Shu bois dasturni ishlab chiqishda xalqaro va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

“Ta’lim muassasalarining sinf rahbarlari to‘g‘risida Nizom”ga, asosan, “Sinf rahbari - ta’lim muassasasining ta’biyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri bo‘lib, o‘ziga birlitirilgan sinf o‘quvchilari ning amalida belgilangan ta’lim-ta’biya olishlari ni tashkil etadi. “Shu nuqtai nazaridan olib qaraganda, bugungi kunda ta’lim muassasalar i sinf rahbarlari i faoliyatida quyidagilarga o‘xshash muammolarko‘zga tashlanmoqda:

ayrim sinf rahbarlari tomonidan umumta’lim maktablari o‘quvchilari ni ta’biyalash jarayonida o‘z oldilarga qo‘ygan maqsad va vazifalari ning to‘g‘ri tashkil etilmaganligi; kelajak soatlari ning aniq o‘quv-mavzular eja asosida tashkil etilmayotganligi; ta’lim-ta’biya va ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlari ning ko‘pchiligidan o‘qituvchi va sinf rahbarlari ning yetarli darajada xabar do r emasligi; ba’zi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi; ayrim ta’lim muassasalar ida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilari mavjudligi;



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

ba’zi sinflar dagi o‘quvchilar kundalik daftarlarining mavjud emasligi, bolalarning ham sinflar ahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi; ayrim o‘quvchilarning darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari; o‘quvchilar Internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari; voyaga yetmaganlarning o‘rtasida turli zararli oqimlarning ta’siriga tushib qolishlik, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining uchrayotganligi; o‘quvchilarning ta’biyasida muhim o‘rin tutadigan kompetensiyalarga erishilmaganligi; ba’zi o‘qituvchi va tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarning yetishmasligi; tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligining pastligi; otalalar bilan samarali muloqotning yo‘lga qo‘yilmaganligi; huquqbuzarlik, mobil telefon va Internet qaramligi, narikomaniya, tamaki va alkogol mahsulotlarini iste’mol qilishga qarshikurash hamda oldini olish bo‘yicha samarali choratadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi.

Shu o‘rinda muammoning muhim bir jihatiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. Bugungi kunda umumta’lim maktablari da kelajak soatlari amalda qanday tashkil qilinmoqda?

Bugungi kundagi aksariyat hollarda kelajak soatlari quruq gaplardan iborat bo‘lib, kelajak soatlari mavzularidan chetga chiqib ketiladi; qaysidir o‘quvchining xulqi muhokamaga qo‘yiladi; umumta’lim maktablari o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishlari va davomatlarini muhokama qilinadi; qandaydir tadbirlarga tayyorgarlik va sinf muammolarini hal etish kabi masalalar xususida so‘z boradi.

Kelajak soatlari qanday bo‘lishi kerak?

Ta’lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi kelajak soatlari ham yaxlit tarbiyaviy usullar, ta’sirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi; sinflar ahbari ushbu tadbirlarni o‘tkazishga doir aniq ish rejasi ega bo‘lishi lozim.

Bugungi tezkor davr barchamizdan ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyaviy ishlarini yanada kuchaytirish lozimligini talab qilmoqda. Ma’naviyat yo‘q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo‘la olmaydi. Shuning uchun, sinflar ahbarlari va butun o‘qituvchilarning jamoasi oldida



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘ziga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o‘rgatishdek muhim vazifa tutadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli g‘oyalarni o‘rnatadigan kurash keskinlashgan, “ommaviy madaniyat” xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, Internet taraqqiyoqli uzatilayotgan buzg‘unchi axborotlar inson qalbi va ongini o‘ziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va metodlarini izlash davlat siyosati darajasidagi muammoga aylangan.

Haqiqatan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek ya’ni, “Dunyoning shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxn soladigan turli yangi taxdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat faravonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, Insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o‘rgatadi [1].

Shunday ekan tarbiyaviy ishlarini davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalarni qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor umumta’lim maktablari o‘quvchilari shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan o‘rinli va samarali foydalanish zarurligini taqozo etadi. O‘quvchi shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do‘stlari, jamoat tashkilotlari, atrofmuhit, Internet, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokazolalar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois barcha sinf rahbarlari o‘z tarbiyaviy faoliyatlariida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Kelajak soatlari umumta’lim maktablari o‘quvchilariida shakllangan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga tatbiq etish maydoni hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan kelajak



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

soatlar umumta’lim maktablari o‘quvchilarida o‘quv fanlaridagi o‘z qali shakllangan tayanch kompetensiyalarini ijtimoiy hayotda tatbiq etish uchun imkoniyat yaratib beradi.

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida xulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin va mustaqil ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni ta’biyalash – kelajak soatlarning asosiy maqsadlaridan biri.

Shuningdek, kelajak soatlardagi o‘z qali umumta’lim maktablari o‘quvchilarida to‘g‘ri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri taqsimlash, o‘z iqtidorini rivojlantirish uchun turli to‘g‘ri yo‘nalishlarni tanlash, tayyorlash joylarida ishlash emas, balki o‘zi ish joylarini yaratishi kabi qobiliyatlarni shakllantiriladi. Kelajak soatlari dasturlaridagi oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.

Vatanparvarlik, axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigiyenik, ekologik hamda estetik ta’biya, shuningdek, o‘quvchilarini to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltiradi. Kelajak soatlarning mazkur yo‘nalishlarini O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlarini ustuvorligidan kelib chiqib, ular da yosh xususiyatlariga mos holda tayanch kompetensiyalarini, shuningdek, mazkur kompetensiyalar haqida kelajak soatining mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini uchun tuzilgan “Kelajak soati uchun namunaviy mavzular rejasi” mazmunan ta’biyaviy-axloqiy xislatlarini shakllantirish bilan bir qatorda yurtda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuzildi.

Mazkur dastur va tadqiqot ishida bugungi kunda sinf rahbarlari uchun amaliy va metodik yordam sifatida Respublika Ta’lim markazi mutaxassislari va amaliyotchilari hamkorligida “Kelajak soati”ning ishlanmalarini tavsiya etiladi.

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan “Kelajak soatlari” ishlanmalarida mazmunan o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolarni hikmatlarga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniy taraqqiyot, shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, o‘quvchi huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiy taraqqiyot, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilar bilan bir qatorda mamlakatimizda o‘tkaziladigan umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga e’tibor berish lozimligi to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Xulosa. Shaxsdagi intellektual zakovat esa yaxshi tashkil etilgan ta’lim-tarbiyaviy jarayonning uyg‘onishi, taraqqiyot va shaxs kamolotini ta’minlashi mumkin. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarning ijobiy imkoniyatlarini maksimal ishga solish yo‘lini izlab topishi lozim.

Yuqsak ma’naviyatimiz asosida mamlakatimiz porloq kelajagi dadil ishonch bilan yuksalib bormoqda, xalqimizda yuksak insonparvarlik qadriyatlarini tiklanmoqda va takomillashmoqda. Bugungi kunda olib boriyotgan islohotlarning bosh va asosiy maqsadi ma’naviyati kuchli, e’tiqodi mustahkam, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Zer o, yuksak ma’naviyatli yoshlar er tangi kelajak poydevori. Demak, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda kelajak soatlari samaradorligiga erishish nihoyatda muhim. Bu borada umumta’lim maktablariida qo‘llanilgan tajribalar yaxshi namuna ekanligi, shubhasiz.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Salomov G.Yu. Umumta’lim maktablarining X-XI sinf o‘quvchilariga sinf soatlarini invariant usulda o‘tkazish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz.: TerDU, 2023.

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

3. Salomov G.Yu, Ganiev H.Yu. Use of innovative technologies in conducting educational hours for X-XI grade students. 2022. Volume 04 Issue 02-202223 The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN –2689-100x) 02 Pages:23-25.

4. Salomov G.Yu. Pedagogical principles of spiritual-moral education of students of X-XI grades in classroom hours. 2023. In Volume 2, Issue 7 of International scientific journal of “Science and Innovation”, 221-223.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8200183>.

5. Salomov G.Yu. Using the boomerang technology in conduct of classrooms in invariant method to high class students of university schools. 2024. Volume 05, Issue 10 Current Research Journal Of Pedagogics (ISSN –2767-3278) 02 Pages: 179-182. Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-30>.

6. Salomov G.Yu. Class hours for high school students in the invariant method use of mosaic thermal work method in transfer. 2024. Volume 05, Issue 10 Current Research Journal Of Pedagogics (ISSN - 2767-3278) 02 Pages: 183-187.

Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-31>.